



Raqs OLAMI



Gazeta
2020-yildan
chiqa
boshlagan.

2026-YIL - MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

MUSIQA TA'LIMI BO'YICHA YIRIK XALQARO FORUM BO'LIB O'TDI

Toshkent shahrida ilk bor "Musika ta'limi: jahon miqyosida yagona maydon sari" mavzusida yirik xalqaro forum tashkil etildi. Uch kun davom etgan mazkur forum dunyoning 20 ga yaqin davlatidan 200 nafarga yaqin xorijiy va mahalliy ishtirokchilarni bir maydonda jamladi.

Unda Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Koreya, AQSh, Fransiya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Vengriya, Tojikiston va Armaniston kabi davlatlardan nufuzli olimlar, 20 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasalari rektorlari, prorektorlar, professorlar va olimlar, etnomuzikologlar, tadqiqotchilar, madaniyat markazlari rahbarlari, o'qituvchilar hamda talabalar qatnashdi.

Forum doirasida "Madaniyat ta'limida sun'iy intellektning ahamiyati" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham o'z ishini boshladi. Unda madaniyat va san'at ta'limi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, raqamli transformatsiya

jarayonlarini jadallashtirish, musiqa kompozitsiyasi, vizual dizayn va media san'at yo'nalishlarida SI asosidagi kreativ platformalarni integratsiya qilish masalalari keng muhokama qilindi. Shuningdek, milliy musiqa cholg'ularini o'rgatishda avtomatik tovush tahlili, maqom va baxshichilik ijrolarini raqamli arxivlash, teatr merosini virtual formatda saqlash kabi dolzarb yo'nalishlar ham e'tiborga olingan.

Forumda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi vakillari ham faol ishtirok etdi va professor-o'qituvchilar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Shuningdek, turkiy davlatlar, MDH va Yevropadan tashrif buyurgan oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida rektorlar forumi ham tashkil etildi. Xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida ta'limda innovatsion yondashuvlar, talabalar almashinuvi va qo'shma loyihalar yuzasidan 20 ga yaqin hamkorlik memorandumlari imzolandi. Jumladan, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Krasnodar davlat madaniyat instituti va Belarus davlat musiqa akademiyasi bilan o'zaro anglashuv va hamkorlik memorandumlarini imzoladi.

Mazkur xalqaro forum mamlakatimizda musiqa va madaniyat ta'limini yangi bosqichga olib chiqish, innovatsion va raqamli yondashuvlarni keng joriy etish, xalqaro akademik hamkorlikni mustahkamlash hamda yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Forum davomida 80 dan ortiq ilmiy ish, innovatsion loyiha va amaliy tadqiqotlar taqdim etildi.

Jamshidbek Mirsoliyev,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi



"LAZGI" - BUTUN INSONIYATNING MA'NAVIY POYDEVORI O'zbekiston madaniy diplomatiya markazida

Bugungi globallashuv zamonida har bir xalq o'zligini, nomoddiy madaniy merosini asrashga intilishi tabiiy hol. Biroq barmoq bilan sanarli san'at durdonalari borki, ular shunchaki bir millatning mulki chegarasidan chiqib, butun insoniyatning ma'naviy poydevoriga aylana oladi. YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritilgan Xorazm "Lazgi" raqsi ana shunday universal va jonli xazinadir.

Ma'lumki, joriy yilning 27-28-aprel kunlari qadimiy va hamisha navqiron Xiva shahrida o'tkazilgan III "Lazgi" xalqaro raqs festivali hamda uning doirasidagi "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ushbu haqiqatni yana bir bor global miqyosda isbotladi.

Prezidentimizning 2020-yil 28-sentabrda PQ-4843-sonli qarori ijrosi doirasida har ikki yilda bir marta tashkil etilayotgan ushbu nufuzli anjuman shunchaki navbatdagi madaniy tadbir emas, balki chuqur ilmiy va strategik platformaga aylanib ulgurdi. Buni konferensiya tashkilotchilari tarkibidan ham yaqqol ko'rish mumkin.

Aytish o'rinliki, O'zbekiston Madaniyat vazirligi va Xorazm viloyati hokimligi bilan bir qatorda YUNESKO, TURKSOY xalqaro madaniyat tashkiloti, Xalqaro festivallari direktoriyasi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti kabi nufuzli muassasalarning hamkorligi forumning nufuzini belgilab berdi.

Joriy yilda konferensiyaning qamrovi va geografik miqyosida misli ko'rilgan o'sish kuzatildi. Unda dunyoning eng yetakchi davlatlari - AQSH, Fransiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Braziliya, Hindiston, Turkiya, Rossiya, Pokiston va Misr kabi jami 17 dan ortiq mamlakat olimlari, xalqaro ekspertlar hamda professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi. Muhimi, konferensiya gibrid shaklda, ya'ni ham bevosita, ham ZOOM platformasi orqali o'zbek, rus va ingliz tillarida olib borilib, global xoreografiya hamjamiyatining diqqat markazida bo'ldi.

Anjuman ishi shunchaki rasmiy chiqishlardan iborat bo'lmay, unda asosan uchta dolzarb sho'ba - Xorazm "Lazgi" raqsining tarixiy-falsafiy ildizlari, globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati taraqqiyoti ham-

da nomoddiy madaniy merosni asrashning innovatsion strategiyalari bo'yicha jiddiy ilmiy munozaralar o'tkazildi.

Yig'inda so'zga chiqqan TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev, AQSHlik professor Lorel Viktoriya Grey, shvetsiyalik professor Abdushukur Muhammad kabi jahon miqyosidagi arboblari "Lazgi" raqsining hatto "Avesto" muqaddas kitobidagi "goh"lar bilan hamohangligi, uning inson vujudidagi hayotiy energiyani uyg'otishga qaratilgan harakatlari falsafasini ilmiy asoslab berishdi. Bu esa "Lazgi" shunchaki sho'x yoki ko'ngilochar raqs emas, balki insoniyatning eng qadimgi sivilizatsiyalaridan qolgan ritmik-falsafiy meros ekanligidan dalolatdir.

Ushbu konferensiya o'zidan keyin katta ma'naviy va adabiy meros qoldirayotgani bilan ham nihoyatda ahamiyatli. Anjuman doirasida Shvetsiyada shved tilida chop etilgan "Xorazm "Lazgi" raqsi: tarixi va tavsifi" monografiyasi, Hindistonning nufuzli "Suz.in" xalqaro ilmiy jurnalining maxsus soni hamda o'zbek va ingliz tillarida tayyorlangan "Xorazm "Lazgi" san'ati: yuksalish yillari" risolasi taqdimotlari o'tkazildi.

Shu bilan birga, TURKSOY tashabbusi bilan turkiy dunyo balet va xoreografiya ta'lim muassasalari rahbarlarining II yig'ilishi ham aynan shu kunlarda tashkil etilib, unda 6 jildli buyuk "Turkiy dunyo an'anaviy xalq raqslari antologiyasi" loyihasi doirasida o'zbek olimlari tomonidan "O'zbek xalq raqsi antologiyasi" bo'limini tayyorlash masalasi qat'iy belgilab olindi. Bu o'zbek raqs maktabining turkiy dunyo xoreografiyasida yetakchi va poydevor o'ringa chiqayotganini amalda ko'rsatadi.

Forumda bir ovozdan qabul qilingan yakuniy Rezolyutsiya shunchaki rasmiy hujjat emas, balki istiqbol uchun aniq maqsadlarni belgilab beruvchi strategik dasturdir. Unda kelgusida fundamental manba bo'lib xizmat qiluvchi mukammal "Xorazm Lazgi raqsi" milliy ensiklopediyasini yaratish, "Lazgi" vositasida jahon yoshlarini tinchlik, birdamlik va bag'rikenglik g'oyalari atrofida birlashtiradigan innovatsion ijodiy loyihalar tizimini shakllantirish hamda ushbu jozibali san'at turi orqali madaniy va ziyorat turizmini rivojlantirish kabi hayotiy tavsiyalar o'z aksini topdi.

Mublag'asiz aytganda, Xivadagi ushbu tarixiy anjuman va uning rezolyutsiyasi O'zbekiston yangi davrda nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki kuchli madaniy integratsiya hamda madaniy diplomatiya markaziga aylanayotganini yana bir bor tasdiqladi. Tilidan, dinidan va irqidan qat'i nazar, barcha millat vakillari bir xil hayajon bilan tushunadigan, qalblarni bir xil "vibratsiyaga" keltiradigan yagona til bor - bu haqiqiy va sof san'at tilidir va bu sehrli til bugun dunyoga aynan o'zbek zaminidan turib gapirilmoqda.

Hulkar Hamroyeva,
filologiya fanlari doktori,
professor v.b.



SAN'AT OLAMI - TALABALAR NIGOHIDA

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida "Musika ta'limi: jahon miqyosida yagona maydon sari" xalqaro ilmiy-amaliy forum doirasida "San'at olami - talabalar nigohida" mavzusida III respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi.

Tadbirda mamlakatimiz va xorijiy oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrant, yosh tadqiqotchi, san'atshunos va pedagoglar ishtirok etdi.

Yalpi majlisda akademiya rektori professor Shuhrat To'xtasimov Yangi O'zbekiston yoshlarining ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash, milliy san'at maktabini rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish yo'lida olib borilayotgan ishlarga to'xtaldi.

So'ngra milliy va jahon xoreografiyasi, raqs san'ati tarixi, zamonaviy xoreografiya, san'atshunoslik, musiqa ta'limi, raqamli texnologiya, sun'iy intellektning san'atdagi o'rni, teatr va madaniy meros yo'nalishlarida ma'ruzalar tinglandi.

"Roziya Karimova - o'zbek milliy raqs

san'atining yirik namoyandasi", "Xoreografiya san'atida yalla janrining ahamiyati", "Kelajak xoreografiyasida sun'iy intellektning o'rni", "Bayot sho'basining maqomdagi o'rni va xususiyati" mavzularida chiqish qilindi.

Dasturga muvofiq, ikki alohida yig'ilishda dolzarb masalalar tahlil etildi. "Xoreografiya san'ati - an'ana va zamonaviylik uyg'unligi" sho'basida milliy raqs san'ati tarixi, Xorazm "Lazgi"si, zamonaviy raqs, folklor va sahna madaniyatiga oid ilmiy ishlar ko'rib chiqildi.

"San'atshunoslik va ijtimoiy fanlar" yo'nalishida esa ommaviy axborot vositalarining madaniy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni, san'atda raqamli texnologiya, milliy musiqa va teatr san'ati, zamonaviy tasviriy san'at hamda ijodiy iqtisodiyot muammolari yuzasidan fikr almashildi.

Tadbirda Qozog'iston, Ozarbayjon kabi xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari talabalar ma'ruzalari ham taqdim etildi.

D.Hakimov,
O'ZA



RAQS FAQAT JISMONIY HARAKAT EMAS YOXUD METODIK YONDASHUVLAR NEGA MUHIM?

Milliy raqs san'ati – xalqning tarixiy xotirasi, madaniy an'analari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan betakror badiiy meros hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida milliy raqs maktablarini rivojlantirish, yosh avlodni san'atga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, yosh raqqosalarda harakat plastikasi, ritmik sezgirlik hamda sahnaviy ifodaviylikni shakllantirish jarayoni puxta metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki raqs – bu nafaqat jismoniy harakatlarni ketma-ket bajarish, balki u orqali milliylik, tuyg'u, kayfiyat hamda badiiy fikrni tomoshabinga yetkazish san'atidir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zbek milliy raqsining hududiy uslublari, xususan, nafis qo'l harakatlari va bosiqlik uyg'unlashgan Farg'ona maktabi hamda quvnoqlik va jo'shqinlikka asoslangan Xorazm maktabining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish metodik jihatdan muhim sanaladi.

Nazariy jihatdan yondashilganda, raqs plastikasining negizi uchta muhim

omilga – tana fiziologiyasi va biomexanikasi, ichki ohangni his qiluvchi ritm va musiqiy sezgirlikka hamda har bir nigoh va barmoq harakatiga ma'no yuklovchi badiiy ifodaga asoslanadi.

Raqs sirlarini endigina o'rganayotgan yosh raqqosalar bilan ishlashda asosiy vazifa ularni raqs san'atiga mehrini uyg'otish va sahna madaniyatiga bosqichma-bosqich o'rgatishdan iborat bo'lib, bu pedagogdan yuksak mahorat talab qiladi. Murabbiylar faoliyatida har bir harakatni oddiy so'zlar bilan tushuntirish, tananing markaziy muvozanatidan boshlab qo'l va oyoq harakatlariga o'tish kabi izchillik tamoyillariga rioya qilish, darsda ijobiy psixologik muhit yaratish hamda bolalarning individual qobiliyatlarini inobatga olish ustuvor vazifadir.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida plastikani rivojlantirish asosan uchta asosiy yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, tana bo'shashuvi va muvozanat mashqlari bo'lib, u bo'g'imlarni yumshatish hamda nafas tizimini to'g'rilashga xizmat qiladi. Ikkinchisi, o'zbek raqsining eng jozibali qismi bo'lgan qo'l va barmoqlar

plastikasi bo'lib, unda bilak va kaftning yumshoq aylanishlari mashq qildiriladi. Uchinchisi esa oyoq harakatlari va ritmika bo'lib, o'quvchilarga yengil qadamlanish va sakrashlar o'rgatiladi.

Bularning barchasi quruq texnika bo'lib qolmasligi uchun mashg'ulotlarda sahnaviy ifoda va obraz yaratish san'atiga alohida urg'u beriladi. Bunda nigoh va mimika harakatlari bilan uyg'unlashib, ijrochining ichki holatini aks ettirishi lozim. Masalan, "Gul terayotgan qiz", "Quvonch" yoki "Sharqona nazokat" kabi etyudlar orqali yosh raqqosalar xarakter yaratishni o'rganadilar.

Metodik jihatdan murakkab harakatlarni o'rgatishda avvalo tana pozitsiyasi, so'ng qo'l va oyoq ritmlari alohida qismlarga bo'lib o'rgatiladi, harakatlar dastlab musiqasiz, keyin esa musiqaga moslab bajariladi. Pedagogik jarayon tayyorlov, texnik mashqlar, kombinatsiyalar, badiiy ijro va yakuniy cho'zilish mashqlaridan iborat besh bosqichli tizimda tashkil etiladi. Bugungi zamonaviy o'quv daralarida video-tahlil, interfaol o'yinlar, mini guruhlarda ishlash kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ritm va muvozanatni his qilishini, murakkab kombinatsiyalarni oson o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, yosh raqqosalarda harakat plastikasi va sahnaviy ifodaviylikni tizimli shakllantirish milliy raqs ta'limining poydevori bo'lib, ushbu metodik yondashuvlar yosh ijrochilarning kelajakdagi professional mahoratiga mustahkam zamin yaratadi hamda soha mutaxassislari uchun muhim amaliy dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Feruza Abdurasulova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi



ORZULAR OSTONASIDAN BOSHLANGAN YO'L

Avvalo aytishim kerakki, O'zDXA-dagi ilk o'quv yili men uchun nafaqat yangi bilimlar maskani, balki katta hayotiy tajriba, o'zgacha ijodiy muhit va qalbimdagi san'atga bo'lgan muhabbatni yanada chuqurroq his qilish imkoniyati bo'ldi. Shu qisqa davr ichida men go'zallik va nafasat olami – xoreografiyaning naqadar keng, murakkab hamda betakror ekanligini anglab yetdim.

E'tiborli jihati, talabalikning dastlabki kunlari hayajonli va unutilmas lahzalarga boy o'tdi. Akademiya ostonasidan hatlab o'tganimga, bu yerda san'atni chin dildan sevuvchi, o'z orzulari sari qat'iyat bilan intilayotgan tengdoshlarimni ko'rib juda quvondim. Ayniqsa, jonkuyar ustozlarimning chuqur bilimi va boy tajribasi esa bizni yanada ilhomlantirdi. Boisi, bu qutlug' dargohda har bir dars shunchaki nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmay, talabalarda san'atni yurakdan his qilish, uni tushunish va qadrlash ko'nikmasini shakllantiradi.

"San'atshunoslik" yo'nalishida tahsil olish jarayonida xoreografiya, teatr, balet va musiqa tarixi, shuningdek, jahon san'ati taraqqiyotiga oid ko'plab qimmatli bilimlarni o'zlashtirdim, deya olaman. Xususan, milliy va jahon xoreografiya san'atining rivojlanish bosqichlari kaminada cheksiz qiziqish uyg'otdi. Mashhur xoreograflar, baletmeysterlar, bastak orlar hamda sahna mahorati namoyandalarining hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish dunyoqarashimni boyitib, san'atga bo'lgan falsafiy qarashlarimni butunlay o'zgartirdi.

Azizbek Akramov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

Ta'kidlash joizki, akademiya-dagi hayot faqatgina ma'ruzalardan iborat emas. Bu yerda muntazam o'tkazib kelinadigan turli madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar va festivallar yoshlarning iste'dodini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Quvonarlisi, o'tgan o'quv yili davomida men ham bir qator ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib, sahna ortidagi jarayonlarni ichkaridan turib kuzatish imkoniga ega bo'ldim. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatim uchun poydevor vazifasini o'tovchi muhim tajriba va katta motivatsiyadir.

Ilk o'quv yili menga mas'uliyat, mehnatsevarlik va ijodiy fikrlash inson hayotida naqadar muhim o'rin tutishini o'rgatdi. Talabalik odamni nafaqat bilimli, balki sabrli, irodali va maqsad sari matonat bilan intiluvchan bo'lishga ham undar ekan. Albatta, o'qish jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham bo'ldi, biroq qalbimdagi san'atga bo'lgan ishtiyoq hamda ustozlarimning doimiy qo'llab-quvvatlashi har qanday to'siqni yengib o'tishimga kuch bag'ishladi.

Bugun ortga nazar tashlar ekanman, akademiya-dagi ilk yilim hayotimdagi eng muhim va unutilmas bosqichlardan biri bo'lganini teran his qilaman. Bu davr menga sodiq do'stlar, ulkan tajriba va kelajak uchun muhim motivatsiya tuhfa etdi. Nasib qilsa, kelgusida ham san'at sohasida o'z ustimda tinimsiz ishlab, milliy madaniyatimiz hamda xoreografiya san'atining ravnaqiga munosib hissa qo'shishni o'z oldimga oliy maqsad qilib qo'yganiman.

"QO'G'IRCHOQ QISMA- TIDAGI INSONIY FOJIA" – MIXAIL FOKINNING "PETRUSHKA" BALETI

Balet san'ati inson his-tuyg'ularining eng murakkab, ichki qatlamlarini harakat orqali ifodalashga qodir bo'lgan yuksak san'at turidir. Uning har bir qadami, musiqasi va plastikasida hayot, o'zlikni anglash hamda iztirob bir butun uyg'unlikda aks etadi. Ushbu san'at turining jahon sahnasida o'ziga xos timsoliga aylangan durdonalaridan biri – Mixail Fokin xoreografiyasida yaratilgan "Petrushka" baletidir.

Ushbu balet inson ruhiyatining eng og'riqli nuqtalarini, qo'g'irchoq qiyo-fasidagi tirik qalb fojiasini raqs orqali nihoyatda nozik, ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Mazkur asar 1911-yilda buyuk rus bastakori Igor Stravinskiy musiqasi hamda iste'dodli xoreograf Mixail Fokin tomonidan sahnalashtirilgan.

Bu raqs mualliflar tomonidan mahorat bilan ishlangani sababli, balet tarixida yangi sahifa ochgan ijodiy hodisaga aylandi. Asar syujeti oddiyligi bilan birga, falsafiy jihatdan nihoyatda mazmundor. Sahnada oddiy bir xalq sayli va sehergarining sehri bilan jonlangan uchta qo'g'irchoq: chorasiz Petrushka, go'zal Balerina va mag'rur Mur o'rtasidagi muhabbat fojiasi kechadi.

Petrushka – oddiy latta va qog'ozdan yasalgan qo'g'irchoq timsolida hayotining so'nggi lahzalarini kechirayotgan g'amgin inson qalbini aks ettiradi.

Raqqos sahnada nafaqat qo'g'irchoq fojiasini, balki insonning jamiyat va taqdir qarshisidagi iztirobi,

shu bilan birga, erkinlikka intilishini ham ifodalaydi. Bu baletda ortiqcha sahna bezaklari yoki murakkab texnik fokuslar emas, balki ijrochining o'zidan – uning tanasining moslashuvchanligidan foydalaniladi. Shuning uchun ham bu asar "balet texnikasi" bilan emas, balki "his-tuyg'u baleti" sifatida tanilgan.

Tomoshabin raqsni kuzatar ekan, beixtiyor qo'g'irchoq qismatida o'zining aksi va har bir lahzaning qadrini chuqur his etadi. Buyuk ijrochilarning mahorati bu asarni abadiyatga muhrlagan. Ayniqsa, Vaslav Nijinskiy ijrosidagi Petrushka obrazi shunchaki qo'g'irchoq emas, balki qalb fojiasini yashagan tirik jonzot edi. Uning harakatlari yengillik, ammo yurakdan kelgan iztirob bor edi: qo'llar tebranishi go'yo ruhning so'nggi parvozini tasvirlaydi.

Bugungi kunda ham jahonning ko'plab teatrlarida bu asar qayta-qayta sahnalashtiriladi. Har bir mohir rejissyor undan kelgan talqinni o'zicha ko'radi: kimdir unda ijtimoiy tengsizlikni, kimdir esa tushunilmagan shaxs yolg'izligini ko'radi. Amalda barchasini birlashtiruvchi narsa – asarning abadiy g'oyasidir.

Ta'kidlash kerakki, ushbu balet asarni tomoshabin beixtiyor qalbining eng chuqur joyiga muhrlaydi. Sahnada qo'g'irchoq jismonan halok bo'ladi, ammo uning erkinlikka bo'lgan isyoni teatr tarixida abadiy mojiza kabidir. "Petrushka" baleti mana shu mojizaning chuqur va eng go'zal ifodasi, desak yangilashmaymiz.

Mahliyo Abduhamidova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi





INSON XOTIRASI AZIZ, QADRI MUQADDAS...

Xotira bor ekan, tirikdir millat,
Tirikdir iftixor, tirikdir g'urur.
Xotira — elni xalq etuvchi qudrat,
Xotira — ertani yorituvchi nur.

Dunyo yaralibdiki, inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'dir. O'tmishni eslash faqat o'tgan kunlarni yodga olish emas, balki bugunning qadriga yetish, inson sha'ni va mehnatini ulug'lash demakdir. Xotira va qadrlash — millat ma'naviyatining eng yuksak mezonlaridan biri. Chunki o'z tarixini unutmagan xalqning kelajagi ham buyuk bo'ladi. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka, vatanparvarlikka va hayot qadrlarini anglashga chorlaydi.

Yurtimizda har yili keng nishonlanadigan "Xotira va qadrlash kuni" nafaqat urush qurbonlarini yod etish, balki xalqimiz boshidan kechirgan og'ir va sinovli yillarni chuqur anglash, bugungi tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish uchun ham muhim ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Bu sana inson qalbida shukronalik, hurmat va sadoqat tuyg'ularini uyg'otadi.

Poytaxtimizda barpo etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va uning hududidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi ana shu yuksak g'oyalarni o'zida mujassam etgan muqaddas maskanlardan biri hisoblanadi. Bu yerga tashrif

buyurgan inson go'yo tarix bilan yuzma-yuz keladi. Majmuada ikkinchi jahon urushi yillaridagi xalqimizning jasorati, sabri va matonati badiiy hamda tarixiy lavhalar orqali ta'sirli aks ettirilgan.

Bu yerda nafaqat qurol-yarog' yoki jang manzaralari, balki inson taqdiri, askar farzandining diydoriga intizor onaning ko'z yoshlari, yurt dardi va g'alabaga bo'lgan ishonch ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Aslida, urush faqat frontdagi jang emas, balki front ortida ham davom etgan og'ir sinov edi. Millionlab insonlar qo'lga qurol olgan bir paytda, yurtdagi vatandoshlarimiz ham o'zlarini kamarbasta qildilar, fidokorona mehnatlari bilan g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. O'zbek xalqi ana shu mashaqqatli yillarda sabr, matonat va insonparvarlikning yuksak namunasini ko'rsatdi. Zavod va fabrikalarda qariyalar, ayollar, hatto yosh bolalar ham kattalar qatori mehnat qildi. Ayollar erkaklar bajaradigan og'ir ishlarni o'z zimmalari-ga oldilar. Qishloqlarda tunni kunga ulab mehnat qilindi.

Nonning ushug'ini ham tejab, frontga oziq-ovqat va kiyim-kechak jo'natildi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim o'zining shaxsiy jamg'armasini va tilla taqinchoqlarini tank yasash uchun harbiy zavodga topshirgan ekan. Buyuk san'atkorning nomi bilan atalgan ushbu tank askarlarga madad bo'lish uchun jang maydoniga otlandi.

O'zbek xalqi urush yillarida nafaqat mehnat qildi, balki bag'rikenglik va mehr-oqibat namunasini ham ko'rsatdi. Turli millat vakillari, yetim bolalar, urush jabrdiydalari yurtimizga evakuatsiya qilindi. Mehmondo'st, saxovatli o'zbek oilalari o'zining oxirgi burda nonini ham ular bilan baham ko'rdi. Bu insonparvarlik bugun ham xalqimiz ma'naviyatining eng yuksak fazilatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Zero, front ortidagi mehnat

ham jang maydonidagi g'alaba kabi sharaflari va mas'uliyatli vazifa edi.

Bugun biz erkin va osoyishta yurtda yashayotgan bo'lsak, uning zamirida mard va bahodir jangchilarning, front ortidagi fidoyi insonlarning jasorati va halol mehnati mujassamdir. Shu bois xotira faqat o'tmish emas, balki kelajak uchun ham buyuk saboqdir. Tarixini unutgan millat ma'naviy ildizlaridan uziladi. O'z o'tmishini qadrlagan xalq esa hamisha g'ururli va qudratli bo'ladi. Ayniqsa, yosh avlod qalbidagi Vatanga muhabbat, milliy o'zlik va tarixga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda bunday maskanlarning ahamiyati beqiyosdir.

"G'alaba bog'i"ga kelgan yoshlar, ota-onalar, poytaxtimiz mehmonlari bu yerdan faqat tarixiy ma'lumot emas, balki hayot haqiqati, sabr, matonat va Vatan qadri haqida chuqur taassurot olib qaytadi. Chunki tinchlik — eng buyuk ne'mat. Uni asrash uchun esa insonda xotira, ogohlik va vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lishi kerak. Xotira bor joyda qadr bor. Qadr bor joyda esa insoniylik, mehr va ma'naviyat yashaydi.

Munisaxon Solijonova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi



MILLIY RAQS MEROSIMIZNI ASRASH — DAVR TALABI

Madaniyat har bir millatning o'tmishi va kelajagini bog'lovchi oltin ko'prikdir. Raqs san'ati bu ko'priknin eng yorqin hamda jozibador qismidir. Biroq bugungi globallashuv va madaniyatsizlanish xavfi kuchaygan bir davrda ko'plab qadimiy, noyob raqs namunalarimiz unutilish yoqasiga kelib qolgan — achinarli haqiqat.

Qayd etish kerakki, raqs — shunchaki jismoniy harakatlar yig'indisi emas, balki xalqimizning ming yillik hayoti, e'tiqodi, quvonchi va dardi muhrlangan jonli tarixiy hujjatdir. Afsuski, bugun sahnada ko'pincha faqat ommaviylashgan, biroz modernizatsiya qilingan raqs turlaridan nariga o'ta olmayotganimiz milliy xoreografiyamiz ildiziga xavf solayotgandek nazarimda.

Ayniqsa, chekka qishloqlarda, tog'li va cho'l hududlarida shakllangan, muayyan urf-odat yoki marosim bilan bog'liq folklor raqslarining aksariyati bugungi kunda faqat keksa avlod vakillarining xotirasida yashayapti. Ular yoshlarga meros bo'lib o'tmasdan, tarix qariga singib ketish arafasida turibdi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalariga xos bo'lgan, polvonlarning jangovar shijoatini aks ettiruvchi yoki chorvadorlarning tabiat bilan mulqotini ifodalovchi qadimiy raqs, shuningdek, Farg'ona vodiysining chekka tumanlaridagi ma'lum bir hunarmandchilik turi bilan bog'liq harakatlar majmuasi bugungi professional sahnalarda deyarli ko'rinmaydi.

Muammoning ildizi shundaki, ba'zi- lar ko'p hollarda raqs san'atiga faqat ko'ngilochar vosita deb qarashadi va uning etnografik, falsafiy ahamiyatini ikkinchi darajaga tushirib qo'yadi. Vaholanki, har bir mintaqaviy raqs o'sha hududning iqlimi, kiyinish madaniyati va hattoki shevasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Aytaylik, ko'hna Xorazmning mashhur "Lazgi" raqsi UNESCO ro'yxatiga kiritilib, dunyo miqyosida muhofaza qilinayotgani quvonarli hol. Biroq xazinamizda "Lazgi" kabi o'nlab, yuzlab noyob durdonalar borki, ularning taqdiri bugun xavf ostida qolmoqda go'yo, chunki ijrochilikdagi "ustoz-shogird" an'anasi deyarli uzilib bormoqda. Zamonaviy xoreografiya maktablarida ko'proq standartlashtirilgan akademik uslublarga urg'u berilishi oqibatida hududiy raqslarning o'ziga xos "shirasi", o'sha joyga xos bo'lgan kichik, ammo o'ta muhim detallar va texnik usullar yo'qolib bormoqda.

Qadimda har bir katta qishloq yoki mahallaning o'z raqs ustalari bo'lgan va ular faqat o'sha hududga xos harakatlar orqali o'zligini namoyon etgan. Bugun esa bu rang-baranglik o'rnini bir xillik (unifikatsiya) egallamoqda. Bu esa milliy madaniyatimiz ranglar palitrasining kambag'allashishiga olib keladi.

Unutilayotgan raqslarni saqlab qolish uchun ularni faqatgina bayram-

larda namoyish etish yetarli emas. Chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari, etnografik ekspeditsiyalar tashkil etish va eng muhimi bu raqslarni raqamlashtirish orqali kelajak avlod uchun videoarxivlar yaratish — kechiktirib bo'lmas vazifadir. Agar biz bugun chekka hududlardagi sakson-to'qson yoshli onaxonlarimiz va otaxonlarimizdan o'sha qadimiy raqs turlarining asl ijro uslubini yozib olmasak, yana o'n yildan keyin bu boylikni tiklashning mutloq imkoni bo'lmaydi.

Shuningdek, san'at kollejlari va oliy o'quv yurtlarida talabalarga faqat umumiy o'zbek raqsini emas, balki har bir viloyatning eng qadimiy va kamyob namunalarini alohida o'rgatish, ularni ijodiy imtihonlar dasturiga kiritish tizimini kuchaytirish lozim. Shuni anglashimiz kerakki, yo'qolib borayotgan har bir raqs — bu bir butun tarixiy davrning o'chib ketayotgan sahifasidir. Zero, raqs harakatlarida ajdodlarimizning ibtidoiy davrlardan tortib keyingi davrlargacha bo'lgan dunyoqarashi, ularning kosmogoniya va tabiat hodisalariga munosabati ramzlar tilida yashiringan.

Zamonaviylik — o'tmishdan voz kechish degani emas, balki qadimiy ildizlarga tayanib yangi daraxtni o'stirishdir. Shuning uchun ham dunyoning rivojlangan davlatlari o'zlarining kichik bir xalq raqsini ham davlat darajasida muhofaza qiladi va uni turistik brend-

ga aylantiradi. Bizning boy xoreografik merosimiz nafaqat san'atshunoslar uchun, balki mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirish uchun ham ulkan manbadir. Boisi, chet ellik sayyoh standart sahna raqsidan ko'ra, o'sha hududning haqiqiy ruhini aks ettiruvchi "jonli" folklor namunasi ko'proq qiziqish bildiradi.

Milliy raqsimizning unutilayotgan namunalarini asrash — shunchaki san'atni saqlash emas, balki millat ruhini, uning betakror qiyofasini va ma'naviy genofondini himoya qilishdir. Agar biz bugun bu masalaga mas'uliyat bilan yondashmasak, ertaga farzandlarimiz o'z tariximizni faqat kitoblardan o'qiydilar, uni his qilish va jonli ijroda ko'rish baxtidan mahrum bo'ladi. Shunday ekan, har birimiz — xoh mutaxassis bo'laylik, xoh oddiy san'atsevar — milliy merosimizning guli bo'lgan raqslarimizni asrab-avaylashda kamarbasta bo'lishimiz lozim. O'tmishning aks-sadosi bo'lgan o'sha sehirli ritmlar va harakatlar sahnadan hamda turmushimizdan butunlay yo'qolib ketmasligi uchun bugun harakat qilishimiz, ularni asl holatini buzmagun holda kelajakka yetkazishimiz — barchamizning burchimizdir.

Umidadbonu Egamnazarova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

QALB TUBIDAGI AKS-SADO

YOXUD INSON NEGA SOG'INADI?

Sog'inch tuyg'usi – inson hayotining eng kuchli, murakkab va sirli kechinmalaridan biri. Bu tuyg'u ko'pincha yo'qotilgan qadrdon narsalarga, ortda qolgan shirin damlarga yoxud uzoqdagi yaqin kishiga bo'lgan cheksiz muhabbat va orzu bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Sog'inchning mohiyati va uning inson ruhiyatidagi o'rni haqida so'z yuritganda, nafaqat uning psixologik jihatlarini, balki ijtimoiy va madaniy ta'sirlarini ham ta'kidlash lozim.

Ruhshunoslar fikricha, sog'inch shaxsning ichki ehtiyojlari bilan real voqelik o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Biror insonni sog'inish – o'sha shaxs bilan bo'lgan ma'naviy aloqani qayta tiklash va uning yoniga qaytish instinktidir. Shuningdek, sog'inch hissiyotlari faqat biror kishi yoki maskanning yo'qotilishi bilan cheklanmaydi. Inson ko'pincha beg'ubor bolaligi, o'tgan yillardagi baxtli lahzalarini qo'msaydi. Bu holat ayniqsa, yosh ulg'aygan sari ko'proq kuzatiladi. Zero, hayot tashvishlaridan charchagan inson o'zining yoshligidagi soddalik va xotirjamlikni sog'inishi tabiiydir. Ammo vaqt o'tgan, hayot o'zgargan – orzu qilingan o'sha davrni ortga qaytarib bo'lmaydi, afsuski...

Inson o'zi suyan kishisini sog'inishi alohida mavzu. Masofa, ajralish yoki uzilgan munosabatlar sababli yuzaga keladigan bu tuyg'u inson ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Bunda yaqin kishining mehri, qo'llab-quvvatlashi va birga o'tkazgan vaqtlari qo'msaladi. Ruhiyatda beqarorlik, g'amginlik va yolg'izlik hissi kuchayadi. Aslida, o'tmishni sog'inish hozirgi hayotdan qoniqmaslik yoki ichki bo'shliqni to'ldirish istagidan tug'iladi. Uzoq vaqt

ko'rishmagan yaqinlar, oilaviy davralar va qadrdon do'stlar sog'inchi esa insonning ijtimoiy aloqalarga hamda ko'proq mehr-oqibatga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatadi.

Sog'inch faqat shaxsiy tuyg'u bo'lib qolmay, ijtimoiy va madaniy hayotga ham ta'sir ko'rsatadi. Uni boshqalar bilan baham ko'rish odamlarni birlashtiruvchi elementga aylanadi. Eski xotiralarni eslash, o'tmish yodgorliklarini qadrlash kabi an'analar jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi. Adabiyot, tasviriy san'at va musiqa esa sog'inchni eng go'zal tarzda ifodalovchi vositalardir. Masalan, ko'plab she'rlar, romanlar va qo'shiqlar aynan mana shu dardli qo'msash mahsuli o'laroq dunyoga keladi. Sog'inch odamning ruhiy holatiga og'irlik qilishi, stressni oshirishi mumkin, biroq ijobiy tomondan u insonni yaqinlarini yanada qadrlashga, muhabbatni asrashga va samimiy bo'lishga undaydi.

Ehtimol, insoniy tuyg'ular ichida eng tushuntirib bo'lmaydigan va azoblisi ham aynan muayyan bir insonga bo'lgan sog'inchdir. Nega degan savolga hech kim aniq javob berolmaydi, sababi bu tuyg'u shunchaki til bilan aytilmaydi, u to'g'ridan-to'g'ri qalb tubida his qilinadi.

Sog'inch – inson ruhiyatining ajralmas qismi. U bizni o'tmish bilan bog'lab turuvchi, ichki dunyomizni boyituvchi va eng qadrdon insonlarimiz timsolida kimligimizni eslatib turuvchi muqaddas ma'naviy ko'prikdir.

Sarvinoz Erkaboyeva,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi

MILLIY SAN'AT – MA'NAVIYATIMIZ KO'ZGUSI

Diyorimiz qadimiy tarix va boy madaniy merosga ega mamlakat bo'lib, bu boylikning eng muhim tarkibiy qismini milliy san'at tashkil etadi. Asrlar davomida xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar va ma'naviy qarashlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan o'zbek san'ati nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki jamiyatning ma'naviy hayotini boyitib, insonlarni ezgulikka chorlaydi va milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi. Shu bois o'zbek san'ati va ma'naviy qadriyatlar bir-birini to'ldiruvchi hamda rivojlantiruvchi omillar sifatida yuksak ahamiyatga egadir.

Rang-barang va ko'p qirrali ushbu san'at tizimiga musiqa, raqs, tasviriy va amaliy san'at, teatr, kino hamda adabiyot kabi yo'nalishtirib kirib, ularning har biri xalqimizning ma'naviy dunyosi va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, xalq ijodi namunalari milliy ruh, hayotiy falsafa va axloqiy mezonlar yorqin namoyon bo'ladi.

Avvalo, o'zbek musiqa san'ati xalqning ruhiy olamini aks ettiruvchi muhim vositadir. Xalq qo'shiqlari, milliy cholg'u asboblari va asrlar davomida ustoz-shogird an'analari asosida shakllangan maqom san'ati o'zining murakkab tuzilishi hamda chuqur falsafiy mazmuni bilan alohida o'rin tutadi. Musiqa inson qalbiga chuqur ta'sir ko'rsatib, unda go'zallikka intilish, sevgi, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

Musiqa bilan hamohang tarzda rivojlangan raqs san'ati esa insonning ichki kechinmalarini nafis harakatlar va mimika orqali ifodalaydi. Farg'ona, Buxoro va Xorazm kabi o'ziga xos raqs maktablari xalqning quvonchi, orzu-intilishlari va hayotga bo'lgan munosabatini aks ettirib, yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Madaniyatimizning yana bir yorqin bo'g'ini bo'lgan tasviriy va amaliy san'at turlari xalqimizning yuksak dididan dalolat beradi. Miniatura, rangtasvir, haykaltaroshlik hamda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizdagi tarixiy obidalar me'morchiligida san'at va ma'naviyat

yat uyg'unligini yaqqol ko'rish mumkin. Shu bilan birga, kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik va yog'och o'ymakorligi kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari nafaqat kundalik maishiy ehtiyojlarni qondiradi, balki qadimiy an'analarni bugungi kungacha bezavol yetkazib kelayotgan estetik qiymatga egadir.

Jamiyat hayotining ko'zgusi hisoblangan teatr va kino san'ati esa insonning ichki dunyosini ochib berish, davr muammolari ila insoniy munosabatlarni keng yoritishda muhim rol o'ynaydi. Sahna va ekran asarlari tomshabinni voqealarga tahlil yondashishga, fikrlashga undaydi va kuchli hissiy ta'sir orqali ma'naviy tarbiya vositasiga aylanadi.

So'z san'ati bo'lmish adabiyot esa buyuk mutafakkirlarimiz yaratgan meros bilan xalqning ma'naviy poydevorini boyitib kelmoqda. Adabiyotda tarannum etilgan insonparvarlik, adolat, halollik va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlar shaxsning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'zbek san'ati yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. Milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli turli xalqaro festivallar, ko'rgazmalar va madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, internet va raqamli platformalar imkoniyatlari esa o'zbek san'atini jahon miqyosida keng targ'ib qilishga va milliy madaniyatimizni xalqaro maydonda tanitishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek san'ati xalqimizning ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, boyitish va kelajakka yetkazishda asosiy ko'priklar vazifasini o'taydi. Inson qalbidagi go'zallik va ezgulik uyg'otuvchi ushbu bebaho xazinani rivojlantirish hamda asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

Samandar Usmonov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi

SAHNADAGI IMPERIYA: MEHMET BALKANNING IJODIY YO'LI

Turkiya balet san'ati o'zining nisbatan qisqa, ammo shiddatli va sermahsul rivojlanish tarixiga ega. Garchi Usmonli saroylarida G'arb raqs san'atiga qiziqish XIX asrdayoq boshlangan bo'lsa-da, professional akademik balet maktabi o'tgan asrning o'rtalarida shakllandi. 1948-yilda jahon miqyosidagi taniqli baletmeyster Ninette de Valois taklifi bilan Turkiyada ilk davlat balet maktabi tashkil etildi.

Ushbu muassasa mashhur ingliz balet maktabi an'analari asosida qurilgan bo'lib, keyinchalik turk milliy baletining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qildi. Turk baletining o'ziga xosligi – mumtoz xoreografiya bilan boy turk xalq raqslari va jozibador sharqona ritmlarining uyg'unlashuvidadir. Aynan mana shu uslubiy yo'nalish keyinchalik zamonaviy turk baletining eng yirik namoyandalardan biri Mehmet Balkan ijodida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi.

1956-yilda tug'ilgan Mehmet Balkan Anqara davlat konservatoriyasini tamomlaganidan so'ng, o'z mahoratini London va Moskva (Katta teatr) mak-

tablarida oshirdi. Uning ijodiy faoliyati faqat ijrochilik bilan cheklanib qolmay, baletmeysterlik va badiiy rahbarlik darajasiga ko'tarildi. M. Balkan xalqaro maydonda munosib e'tirof etilgan ijodkor sifatida turli yillarda Germaniyaning Gannover davlat operasi badiiy rahbari, Portugaliya Milliy baleti rahbari hamda Turkiya davlat opera va baleti bosh xoreografi lavozimlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Faoliyati davomida 60 dan ortiq spektakllarni sahnalashtirgan usta san'atkorning Yaponiya Madaniyat vazirligi mukofotiga loyiq ko'rilgan "Relations", U.Shekspir asari asosidagi "A Midsummer Night's Dream" va M.Tedorakis musiqasiga yaratilgan "Zorba" kabi asarlari jahon sahnasini zabt etdi.

Uning ijodidagi eng yirik va murakkab asarlardan biri – "Muhtesem Süleyman" (Sulton Sulaymon) opera baletidir. Librettosi Ishik Noyan qalamiga mansub, musiqasi esa taniqli kompozitor Tervik Akbashli tomonidan klassik an'analardan va turk milliy cholg'ulari uyg'unligida yaratilgan ushbu epik spektakl ilk bor Iz-

mir davlat opera va balet teatri trupпасi tomonidan sahnalashtirilgan. Mehmet Balkan ushbu asarda Usmonli imperiyasining eng qudratli hukmdori Sulton Sulaymonning hayoti, harbiy g'alabalari, ichki kechinmalari va Xurram Sulton bilan bo'lgan murakkab munosabatlarini xoreografik til orqali mahorat bilan ochib bergan.

Spektakl shohning nafaqat jang maydonlaridagi shavkati, balki uning Muhibbiy taxallusi bilan g'azallar bitgan shoir, inson va oshiq sifatidagi qirralarini ham ko'rsatib, turk tarixini jahon xoreografiyasi talablari darajasida zamonaviy klassik uslubda namoyon etdi.

Mehmet Balkanning poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri bilan hamkorligi esa O'zbekiston balet san'ati tarixida yangi sahifa ochib, unga yangi nafas olib kirdi. Uning Toshkentdagi faoliyati asosan zamonaviy neoklassika va dramatik balet janrlarini boyitishga qaratildi. Mazkur teatr sahnasida J.Verdi musiqasi asosida sahnalashtirilgan, insoniy tuyg'ular va chuqur dramatism uyg'unlashgan

"Kameliyali xonim" spektakli hamda I.S.Bax musiqasini sharqona motivlar va zamonaviy plastika bilan birlashtirgan "Bach Alla Turka" asari muvaffaqiyatli namoyish etildi. Balkanning o'ziga xos ish uslubi o'zbek raqqoslaridan nafaqat texnik mukammallikni, balki yuqori darajadagi aktyorlik va dramatik mahoratni ham talab qildi.

Umuman olganda, turk baleti Mehmet Balkan timsolida o'zining milliy chegaralaridan chiqib, jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylandi. Uning Toshkentdagi teatrlar bilan samarali hamkorligi O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash bilan birga, milliy balet maktabimiz repertuarini zamonaviy durdonalar bilan boyitdi. Balkan yaratgan xoreografik tildagi nafosat, dinamika va falsafiy teranlik hamon tomshabinlar hamda soha mutaxassislari tomonidan yuksak baholanib kelinmoqda.

Dilfuza Babaniyazova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi



O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI NASHRI



TAHRIR HAY'ATI	BOSH MUHARRIR:		
Nozim Qosimov	Shuxrat TOXTASIMOV	Nashr indeksi: 145	Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.
Hulkar Hamroyeva		Ofset usulida bosildi.	
Matluba Murodova	BIZNING MANZIL:	Qog'oz bichimi A-3	
Po'lat Tashkenbayev	100031, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,	Bosishga topshirish vaqti: 19:00	"Niso nashriyot va matbaa uyi" MChJ bosmaxonasida bosildi.
Shahzoda Xudoynazarova	Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.	Bosishga topshirildi: 21:25	Manzil: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, Mash'al mahallasi, Markaziy ko'cha, 1-uy.
Gulasal Usmonova		Adadi: 200	
Hamidjon Ro'ziboyev	NASHR UCHUN MAS'UL	Bahosi kelishgan narxda.	
	Iroda Ahmadova	SAHIFALOVCHI:	Buyurtma: 456
		Jurobek XIDIROV	Hajmi 1 bosma taboq.